

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.YU.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**MUSTANOV ILXOM ABDIVALIIONOVICH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANKLAR FAOLIYATINI  
TARTIBGA SOLISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi**

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Mustanov Ilhom Abdivalijonovich**

О‘zbekiston Respublikasida banklar faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

**Mustanov Ilhom Abdivalijonovich**

Improving the organizational and legal framework for regulating banking activities in the Republic of Uzbekista.....25

**Мустанов Илхом Абдивалижонович**

Совершенствование организационно-правовой основы регулирования банковской деятельности в Республике Узбекистан.....45

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

List of published scientific works

Список опубликованных научных работ .....49

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.YU.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**MUSTANOV ILXOM ABDIVALIYONOVICH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANKLAR FAOLIYATINI  
TARTIBGA SOLISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi**

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD /Yu245 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ergashev Ikrom Abdurasulovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Davlyatov Valisher Xakimjanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xojiyev Erkin Tuygunovich**  
yuridik fanlar nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-sentabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish **mumkin (\_\_\_\_\_ -raqami bilan ro‘yxatga olingan).** (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 22-avgustda tarqatildi.  
(2025-yil 22-avgustdagi 28-raqamli reyestr bayonnomasi).

**R.R. Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**F.B. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

**I.R. Bekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda banklarning normal faoliyatini ta'minlash orqali davlatning bank-kredit tizimini barqarorlashtirish hamda bank faoliyatini zamonaviylashtirish orqali valyuta va narx barqarorligini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Banklarning o'z funksiyasini normal amalga oshirishida bank siyosati va qonunchiligini takomillashtirish muhim hisoblanadi. The Heritage Foundation xalqaro tadqiqot institutining 2024-yilgi tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha dunyoda 103-o'rinni egalladi, xususan, bu indeks bo'yicha Qozog'iston 66, Qirg'iziston 112, Tojikiston 137, Turkmaniston 162, Estoniya 8, Litva 15, Gruzviya 32, Latviya 20, Armaniston 47, Rossiya 131, Moldaviya 99, Belarus Respublikasi 153, Ozarbayjon 70-o'rinlarni egallagan<sup>1</sup>. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatini xalqaro standartlar asosida zamonaviylashtirish va bank faoliyatiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahonda bank faoliyatining zamonaviy usul va vositalarini qo'llash orqali tadbirkorlik va ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni joriy qilishga keng ahamiyat berilmoqda, jumladan, xalqaro bank standartlarini milliy qonunchilikka doimiy implementatsiya qilish, banklar faoliyatiga qo'yilgan minimum talabalarga javob berish, Markaziy bank tomonidan belgilangan normativlarga maksimum qat'iy amal qilish, bank operatsiyalarining zamonaviy turlarini joriy qilish, bank mijozlariga qulay va sifatli bank xizmatlarini taklif qilish hamda bank va mijoz o'rtasida munosabatlarda manfaatlarni himoya qilish masalasiga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlik va investitsiyaviy muhitni rivojlantirishda, avvalo bank tizimi va siyosatini takomillashtirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu boisdan "Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish, xususan, bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish, kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan"<sup>2</sup>. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida bank faoliyatini huquqiy tartibga solish mavzusida ilmiy tadqiqot ishini olib borish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son (2022), "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son (2023), "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi

<sup>1</sup>The Heritage Foundation xalqaro tadqiqot institutining rasmiy sayti <https://www.heritage.org/index/pages/all-country-scores>

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

to'g'risida"gi PF-5992-son farmonlari (2020), Markaziy bank boshqaruvi qaror bilan tasdiqlangan "Banklar va nobank kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llash tartibi to'g'risida" nizom (2023), Markaziy bank boshqaruvi qaror bilan tasdiqlangan "Banklar va bank guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizom (2023), "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun (2019), "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun (2019) va boshqa sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda bank huquqining turli institutlari, xususan banklar faoliyatining ayrim jihatlari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A. Li, E. Xojiyev, I. Ergashev, O. Raximova, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A. Hamidov, O. Rashidov, Sh. Abdullayeva, A. Zulyarov, F. Samig'jonov, A. Omonov, T. Qoraliyev, S. Norqobilov, H. Dadaboyeva va O'. Jo'rayevlar tomonidan bank, pul va kredit masalalari tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida bank faoliyati tadqiqot obyekti sifatida ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, N. Eriashvili, Y. Tarxanova, I. Kilyasxanov, Y. Jukov, L. Yefimov, D. Alekseyev, V. Belx, S. Vinichenko, D. Gavrin, V. Popondopulo, D. Petrov, Y. Xomenko, A. Tedeyev, G. Ruchkina, Y. Polyushko, A. Venina, Y. Kasheyeva, L. Yefimova, G. Tosunyan, A. Kurbatova, N. Laktionova, A. Sherstobitov, O. Oleynik va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida bank faoliyatining yuridik va iqtisodiy asoslari tahlil qilingan.

Bank faoliyati tadqiqot obyekti sifatida ko'pgina xorijiy olimlar tomonidan, xususan, Sir Ross Cranston, Emilius Avgouleas, Kristin van Zwieten, Christopher Hare, Theodor van Sante, Poh Chu Chai, Iris H-Y Chiu, Joanna Wilson, Alfred M. Pollard, Raymond Natter, Penny A. Hazelton tomonidan o'rganilgan. Shunga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasida bank faoliyatini takomillashtirish masalalaridan kelib chiqib, bank faoliyati alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilinmaganligi ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatini huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy, amaliy va qonunchilik muammolarini tizimli o'rganish asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bank va bank tizimining yuridik tabiatini tahlil qilish orqali bank tushunchasi va uning xususiyatlarini ishlab chiqish hamda bank tizimi, turlari va vazifalarini tahlil qilish; milliy va xorijiy davlatlarning bank qonunchiligini tahlil qilish orqali qonunchilikdagi muammolarni aniqlash; banklarni tashkil etish va uning tashkiliy-

huquqiy asoslarini o'rganish orqali qonunchilikdagi muammolarni aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

bank operatsiyalariga oid normalarni ilmiy-amaliy tahlil qilish va xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyoslash orqali uni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

banklar faoliyatini nazorat qilishga oid normalarni ilmiy-amaliy tahlil qilish va xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyoslash orqali uni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

bank va mijozlarning huquq va manfaatlarini kafolatlarining nazariy va huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda uni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda bank faoliyatining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekistonda banklar faoliyati va ularni nazorat qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekistonda banklar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda bank huquqida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi tushunchasi kengroq tahlil qilinib, uning tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, shu'ba banklar, ularning filiallari, vakolatxonalari, operatsion idoralari (punktlari), xorijiy banklarning vakolatxonalari kirishi lozimligi asoslab berilgan;

banklarning asosiy vazifasi moliya-kredit tizimida bo'sh mablag'lardan unumli foydalanish orqali kapital bozorni moliyalashtirish va aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hisoblanishi asoslangan;

onlayn platformalar va boshqa savdo-xizmat ko'rsatish platformalariga xizmat ko'rsatuvchi operator funksiyalarini bajarish; bank faoliyati bilan bog'liq kompyuter tizimlari va dasturlarini sotish va ijaraga berish; moliyaviy ta'lim va moliya bo'yicha kitoblar va davriy nashrlarni nashr etish; moliyaviy tadqiqotlar va so'rovnomalar o'tkazish forfeiting operatsiyalari, bank oldidagi majburiyatlarni to'lash uchun garovni sotish bank operatsiyalari (bank xizmatlari)ning alohida turi sifatida namoyon bo'lishi asoslab berilgan;

bank mijozlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi ma'muriy, shartnomaviy va qo'shimcha choralar usullarini qamrab olishi, mazkur usullardan qo'shimcha usul doirasida O'zbekiston Respublikasida bank ombudsmani institutini joriy etish zarurligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonuniga O'zbekiston Respublikasi bank tizimi – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, shu'ba banklar, ularning filiallari, vakolatxonalari, operatsion

idoralari (punktlari), xorijiy banklarning vakolatxonalaridan iborat” mazmunidagi normani mustahkamlash belgilashga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga “Bank o‘z faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida olib boradi: bank faoliyatiga doir prinsiplar: qonuniylik; mustaqillik; oshkoralik; bank faoliyatining ishonchliligi va xavfsizligi; bank va davlat o‘rtasidagi javobgarlikning chegaralanganligi; xalqaro bank standartlarida nazarda tutilgan boshqa umume’tirof etilgan asosiy prinsiplardan iborat. Bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarga doir prinsiplar: tenglik, iroda erkinligi, halollik, oqilonalik, adolatlilik, omonatlarning sir saqlanishi, omonatlarning qaytarilishi kafolatlanganligi prinsiplardan iborat”ligi mazmunidagi normani belgilashga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga Islom(iy) banki – markaziy bankning litsenziyasi asosida qonunchilikka hamda islom tamoyillariga muvofiq bank faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs ekanligi hamda davlatlararo bank – xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi bank bo‘lib, uning ta’rischilari O‘zbekiston Respublikasi hukumati va ushbu shartnomani imzolagan davlat hukumati hisoblanishi mazmunidagi normani mustahkamlashga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga bank ombudsmani institutini mustahkamlash, xususan, uning asosiy tushunchalari va vakolatlarini belgilashga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti, so‘rovnoma, ekspert baholash shakllariga asoslangan. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo‘llash amaliyotida, soliq qonunchiligi normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Bank huquqi, Moliya huquqi va Biznes huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta’lim muassasalarida Bank huquqi, Moliya huquqi va Biznes huquqi fanlarini o‘qitishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

Bank faoliyati daromad olishga qaratilgan, vakolatli organ tomonidan berilgan litsenziya doirasida bank mijozlariga bank xizmatlarini ko‘rsatish, jismoniy va yuridik shaxslarga bank hisobraqamlarini ochish va yuritish, omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish, to‘lovlar va hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy

operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs ekanligiga qaratilgan taklif O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatasi Qonunchilik palatasining 2024-yil 27-martdagi 02/4-40-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi bank tushunchasi mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Bank operatsiyalari banklar tomonidan litsenziyada hamda qonunchilikda amalga oshirilishiga ruxsat etilgan harakat turlari bo‘lib, mazkur harakatlar korporativ va fuqarolik vositalari orqali realizatsiya qilinishi hamda bank operatsiyalarining bir qator turlarini belgilashga qaratilgan taklif O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatasi Qonunchilik palatasining 2024-yil 27-martdagi 02/4-40-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi bank operatsiyalari turlarini huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Bank nazorati vakolatli organ tomonidan o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida qonunchilik yoki o‘zi tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga banklar tomonidan amal qilinishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini tashkil etadi va uning bir turi sifatida Markaziy bank tomonidan belgilanadigan prudensial normativlar tizimi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 38-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatasi Qonunchilik palatasining 2024-yil 27-martdagi 02/4-40-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi bank nazoratining shakl va usullarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

Markaziy bankning asosiy maqsadi moliya-kredit mexanizmlari orqali pul va narxlarning barqarorligini ta‘minlash hisoblanadi va mazkur maqsaddan kelib chiqib, moliyaviy vazifalarni bajaradi (nazorat qilish, tekshirish, monitoring qilish, normativ-huquqiy hujjat chiqarish orqali tartibga solish, litsenziyalash, maslahat, kafolat, kafil, fiskal agent, rezerv, depozitariy va boshqa vazifalar to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatasi Qonunchilik palatasining 2024-yil 27-martdagi 02/4-40-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi Markaziy bankning maqsad va vazifalarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ilmiy maqola (2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) va to‘plamlar tarkibida 6 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq qilinayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Banklar faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda bank va bank faoliyati tushunchasi, uning yuridik tabiati, banklar tizimi, prinsiplari, vazifalari mazmun-mohiyati, shuningdek mamlakatimizda bank qonunchiligining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan A. Li, E. Xojiyev, M. Yo‘ldoshev, Y. Tursunov, O. Raximova, A. Hamidov, F. Samig‘jonov, A. Omonov, T. Qoraliyev, Sh. Xujayev, A. Rahimova, O. Rashidov, Sh. Abdullayeva, N. Eriashvili, Y. Tarxanova, A. Travkin, I. Kilyasxanova, Y. Jukova, L. Yefimova, D. Alekseyeva, V. Belx, S. Vinichenko, D. Gavrin, V. Popondopulo, D. Petrova, Y. Xomenko, A. Tedeyev, Y. Jukov, Sir Ross Cranston, Emilios Avgouleas, Kristin van Zwieten, Christopher Hare, Theodor van Sante, Poh Chu Chai, Iris H-Y Chiu, Joanna Wilson va boshqa olimlar tomonidan bildirilgan nuqtayi nazarlar tahlili asosida bank va bank faoliyati tushunchasi va uning yuridik tabiatiga xos xulosalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi milliy va xorijiy olimlarning fikrlarini hamda xorijiy davlatlarning (Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Gruziya, Germaniya, Shveysariya, AQSh, Janubiy Koreya, Kanada, Singapur) bank qonunchiligini tahlil qilgan holda: “Bank – faoliyati daromad olishga qaratilgan, vakolatli organ tomonidan berilgan litsenziya doirasida bank mijozlariga bank xizmatlarini ko‘rsatish, xususan, jismoniy va yuridik shaxslarga bank hisobraqamlarini ochish va yuritish, omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish, to‘lovlar va hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs”, – degan ta‘rifni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi: “Bank faoliyati – banklar tomonidan qonunchilikka muvofiq o‘z ustavida va vakolatli organ tomonidan berilgan litsenziyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan bank operatsiyalar va tashkiliy-harakatlar majmui”, – degan ta‘rifni ilgari surgan.

Dissertant banklar faoliyatining yuridik tabiatini tadqiq etgan holda uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadi: *birinchidan*, banklar foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tijoratchi yuridik shaxs hisoblanadi, bunda markaziy bankning faoliyati istisno hisoblanadi, chunki markaziy bankning asosiy maqsadi nazorat qilish va shu orqali moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash hisoblanadi; *ikkinchidan*, banklar mulk shakli va ulushiga ko‘ra davlatga qarashli, xususiy, chet el kapitali ishtirokidagi bank va chet el banklari sifatida faoliyat yuritishi mumkin; *uchinchidan*, banklar faoliyati alohida toifadagi faoliyat turi bo‘lganligi sababli vakolatli organdan berilgan litsenziya asosida faoliyat yuritadi; *to‘rtinchidan*, banklar asosiy faoliyat sifatida kredit, moliya va bank operatsiyalarini amalga

oshiradi; *beshinchidan*, banklar bevosita ishlab chiqarish savdo va banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan xizmatlar bilan shug‘ullanmaydi; *oltinchidan*, banklar yuridik shaxs sifatida barcha mulkiy va nomulkiy huquqdan foydalanadi, majburiyatlarga ega bo‘ladi hamda javobgar bo‘ladi.

Tadqiqotchi milliy va xorijiy davlatlarning bank qonunchiligini tahlil qilgan holda Markaziy bankning asosiy maqsadi moliya-kredit mexanizmlari orqali pul va narxlarning barqarorligini ta‘minlash hisoblanishi va mazkur maqsaddan kelib chiqib, moliyaviy vazifalarni bajarishi (nazorat qilish, tekshirish, monitoring qilish, normativ-huquqiy hujjat chiqarish orqali tartibga solish, litsenziyalash, maslahat, kafolat, kafil, fiskal agent, rezerv, depozitariy va boshqalar), shuningdek banklarning asosiy vazifasi – moliya-kredit tizimida bo‘sh mablag‘lardan unumli foydalanish orqali kapital bozorni moliyalashtirish va aholiga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish hisoblanishini keltirib o‘tadi.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Qozog‘iston, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida milliy bank qonunchiligimizda bank tizimi to‘liq ochib berilmaganligi, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, shu‘ba banklar, ularning filiallari, vakolatxonalari, operatsion idoralari (punktlari), xorijiy banklarning vakolatxonalaridan iboratligi asoslantirilgan, shuningdek, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi huquqshunos va iqtisodchi olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda banklar turlari ularning mulk shakliga (davlat, xususiy), xizmat ko‘rsatish hududiga (davlat, davlatlararo, xalqaro), ta‘sischilar toifasiga (milliy, chet el ishtirokida, chet el banki), faoliyati turi va sohasiga (ipoteka, investitsiya, qishloq xo‘jaligi, sanoat-qurilish) va maqsadiga ko‘ra (tijorat va notijorat) tasniflaydi.

Dissertant bank prinsiplari bank munosabatlarini tartibga soluvchi bank qonunchiligining asosiy va bosh qoidalari hisoblanishini qayd etib, bank prinsiplarini *bank faoliyatiga doir prinsiplar va bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarga doir prinsiplarga* ajratish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosaga kelgan. Xususan, *bank faoliyatiga doir prinsiplar sifatida*: qonuniylik; mustaqillik; oshkorlik; bank faoliyatining ishonchliligi va xavfsizligi; bank va davlat o‘rtasidagi javobgarlikning chegaralanganligi; xalqaro bank standartlarida nazarda tutilgan boshqa umume‘tirof etilgan asosiy prinsiplar; *bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarga doir prinsiplar sifatida*: tenglik, iroda erkinligi, halollik, oqilonalik, adolatlilik, omonatlarning sir saqlanishi, omonatlarning qaytarilishi kafolatlanganligi kabi prinsiplarni tushunish lozimligini qayd etgan.

Mazkur bob doirasida muallif tomonidan bank qonunchiligi vakolatli organ tomonidan qabul qilingan bank sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi hisoblanishi qayd etilib, O‘zbekiston Respublikasida bank qonunchiligi rivojlanishini olti bosqichga bo‘lib tahlil qilingan holda har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganib chiqilgan.

*Birinchi bosqichda* – (1991-1994-yillar) mustaqil O‘zbekistonning bank tizimining fundamental asoslari yaratilgani; *ikkinchi bosqichda* – (1994-1996-yillar) milliy valyuta muomalaga kiritilgani va ikki pog‘onali bank tizimining huquqiy asoslari yaratilgani;

*uchinchi bosqichda* – (1997-2000-yillar) banklarni xususiylashtirilgani, aksiyadorlik tijorat banklarida boshqaruvning sifati oshirilgani va banklar faoliyatida nazorat kuchaytirilgani; *to'rtinchi bosqichda* – (2000-2010-yillar) bank tizimi yanada erkinlashtirilgani hamda bozor munosabatlariga oid qoidalar joriy etilgani; *beshinchi bosqichda* – (2010-2016-yillar) O'zbekistonda zamonaviy bank tizimi takomillashtirilgani va xalqaro bank standartlariga moslashtirilgani; *oltinchi bosqichda* – (2016-yil – h.v ) O'zbekistonda banklar xususiylashtirilgani, elektron bank xizmatlari joriy etilgani, valyuta siyosati erkinlashtirilgani va bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan prinsiplar joriy etilgani hamda banklarning mustaqilligi ta'minlangani to'g'risida xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning **“Banklar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida banklarni tashkil etish va uning tashkiliy-huquqiy shakli, bank operatsiyalarining yuridik mazmuni, banklararo xalqaro hamkorlikning huquqiy masalalari tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan huquqshunos olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan holda O'zbekiston Respublikasida banklarni ochish uchun har qanday shaxs, xususan, rezident va norezident jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari mavjudligi, banklarning asosiy vazifa va funksiyasidan kelib chiqib, moliyaviy mas'uliyatni oshirish hamda mijozlarning huquq va manfaatlarini ko'zlab, qonunchilikda banklarni ochish uchun bir qator talablar belgilangani, xususan, mazkur talablarni umumiy asoslarda guruhlarga ajratib, birinchi guruh – muassislarga qo'yilgan talablar, ikkinchi guruh – bank xodimlariga qo'yilgan talablar, uchinchi guruh – moliyaviy mablag'larga qo'yilgan talablar, to'rtinchi guruh – bank binosi, uskuna va dasturlarga qo'yilgan talablar, beshinchi guruh – bankning tashkiliy tuzilmasi va bankni tashkil etishga doir hujjatlarga qo'yilgan talablar to'g'risida xulosaga kelingan.

Rivojlangan davlatlar va MDH davlatlarining qonunchiligida banklarning tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati sifatida belgilangan bo'lib, mazkur shaklning tanlanishi, jamiyatning oshkora ishlashi, mijozlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda aksiyalar orqali moliyaviy mablag'larni jalb qilishda ifodalanishi to'g'risida xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Xitoy, Shveysariya, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida milliy bank qonunchiligimizda chet el banklarining filiallarini tashkil etishga ruxsat berish mumkinligi asoslantirilgan.

Bank ta'sischilari sifatida quyidagilar, xususan, offshor zonalar hududida yashovchi yoki ro'yxatdan o'tgan, ro'yxati Markaziy bank tomonidan belgilanadigan ishtirokchilar sifatida affillangan shaxslar bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar; xalqaro sanksiyalar mavjud bo'lgan davlatlarda ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar hamda shunga o'xshash elementlarga ega shaxslar ishtirok etishi mumkin emasligi asoslantirilgan, shuningdek, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 12-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan huquqshunos olimlar A. Zulyarov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A. Li, E. Xojiyev, O. Raximova, Sh. Bozarov, A. Kurbatov, A. Sherstobitov, O. Oleynik, L. Yefimova, G. Tosunyanlarning tadqiqotlari tahlil qilinishi asosida bank operatsiyalari tushunchasi bo'yicha xulosa keltirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan bank operatsiyalari markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiriladigan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘oz, to‘lov, valyuta va boshqa xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy operatsiyalar hisoblanishi to‘g‘risida xulosaga kelingan.

Dissertatsiyada “bank xizmatlari” va “bank operatsiyalari” tushunchalari bir-biriga o‘xshash va o‘zaro yaqin tushuncha hisoblanishi, ammo muallifning fikricha, bank xizmatlari kengroq bo‘lib, bank operatsiyalarini ham qamrab olishi, masalan, banklar tomonidan fuqarolarning murojaatlari ko‘rib chiqilishi bank xizmati bo‘lishi mumkinligi, ammo litsenziyada belgilangan vakolatlardan kelib chiqib, mazkur murojaatga javoban biror-bir bank operatsiyalari amalga oshirilishi yoki oshirilmaslgi mumkinligi qayd etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Janubiy Koreya, Germaniya, Qirg‘iziston, Rossiya, Qozog‘iston, va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida: 1) Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq, onlayn platformalar va boshqa savdo-xizmat ko‘rsatish platformalariga xizmat ko‘rsatuvchi operator funksiyalarini bajarish; 2) bank faoliyati bilan bog‘liq kompyuter tizimlari va dasturlarini sotish va ijaraga berish; 3) moliyaviy ta‘lim va moliya bo‘yicha kitoblar va davriy nashrlarni nashr etish; 4) moliyaviy tadqiqotlar va so‘rovnomalar o‘tkazish; 5) forfeiting operatsiyalari; 6) bank oldidagi majburiyatlarni to‘lash uchun garovni sotish kabi harakatlarni bank operatsiyalari (xizmati) sifatida tasniflash lozimligi to‘g‘risida xulosaga kelingan, shuningdek “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada xalqaro bank va moliya tashkilotlari sifatida Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot bankining faoliyatiga to‘xtab o‘tilib, tadqiqotchining fikricha, xalqaro moliya va bank tashkilotlariga a‘zo bo‘lish hamda xalqaro bank standartlarini implementatsiya qilishdan ko‘zlangan maqsad – bank qonunchiligini doimiy takomillashtirib borish hamda bank tizimida moliyaviy inqirozlarning oldini olish hisoblanishi qayd etilgan.

Dissertatsiyada islom banki yoki islomiy bank tushunchasi tahlil qilinib, Islom banki tushunchasi ko‘proq xalqaro tashkilot ma‘nosida qo‘llansa, islomiy bank tushunchasi islom tamoyillari asosida ishlaydigan bankka nisbatan qo‘llanishi, tadqiqotchi nazarida, har ikki tushuncha ham islom qoidalari asosida ishlovchi bankni anglatishidan kelib chiqib, bir-xil ma‘noda qo‘llanishi mumkinligi to‘g‘risida xulosa qilingan hamda “Islom(iy) banki – markaziy bankning litsenziyasi asosida qonunchilikka hamda islom tamoyillariga muvofiq bank faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs”, – degan ta‘rif ilgari surilgan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Indoneziya, Malayziya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida bank qonunchiligimizda islom banki faoliyatiga qo‘yilgan talablarni belgilash, xususan, islom banki foiz shaklida haq olish, unga investitsiya depozit yoki daromad qaytishini kafolatlash, tamaki ishlab chiqarish va (yoki) savdo bilan bog‘liq faoliyati, spirtli ichimliklar, qurol va o‘q-dorilar, qimor, shuningdek, tadbirkorlik va boshqa turdagi islomiy moliya tamoyillari bo‘yicha kengash tomonidan taqiqlangan faoliyatni moliyalashtirish (kreditlash) huquqiga ega emasligi to‘g‘risida xulosa qilingan, shuningdek, bank faoliyati va moliyalashtirishning islom tamoyillariga muvofiq bank

operatsiyalari va bitimlarini amalga oshirish uchun litsenziya olish tartibi, islom banklari va "Islomiy darcha"ga ega banklarning maqomi Markaziy bank tomonidan belgilanishi lozimligi asoslantirilgan, shuningdek, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun 5-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada islom banking operatsiyalari o'ziga xos operatsiyalar hisoblanishi qayd etilib, unga ko'ra, islom banking bank operatsiyalariga quyidagi: 1) jismoniy va yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha foizsiz depozitlarini qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish; 2) jismoniy va yuridik shaxslarning investitsiya depozitlarini qabul qilish; 3) bank qarz operatsiyalari: Islom banki tomonidan muddatli, qaytariladigan va haq olinmasdan pul shaklida kreditlar berish; 4) jismoniy va yuridik shaxslarni tijorat krediti berish orqali sotuvchi sifatida moliyalashtirish: tovarlarni keyinchalik uchinchi shaxsga sotish shartisiz; tovarlarni keyinchalik uchinchi shaxsga sotish shartlari bo'yicha; 5) yuridik shaxslarning ustav kapitalida va (yoki) sheriklik shartlarida ishtirok etish orqali ishlab chiqarish va savdo faoliyatini moliyalashtirish; 6) lizing (ijara) shartlari bo'yicha investitsiya faoliyati; 7) islom banking bank operatsiyalarini amalga oshirishda agentlik faoliyati kabi operatsiyalar hisoblanishi ilgani surilgan, shuningdek "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun 5-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston Respublikasida banklarning qonuniy faoliyatini ta'minlash masalalari"** deb nomlangan uchinchi bobida banklar faoliyatini nazorat qilishning huquqiy masalalari, bank qonunchiligini buzganlik uchun qo'llanadigan choralar hamda bank mijozlarining huquq va manfaatlari kafolatlari tahlil etilgan.

Bank nazoratining yuridik tabiatiga nisbatan olimlar S. Norqobilov, H. Dadaboyeva, O'. Jo'rayev, B. Berdiyarov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A. Zulyarov, A. Li, O. Raximova, Sh. Bozarov, E. Xojiyev, F. Samig'jonov, V. Davlyatov, I. Ergashev, E. Rahmatov, Sh. Abdullayeva hamda boshqa olimlar tomonidan bildirilgan nuqtayi nazarlar tahlili asosida muallif tomonidan bank nazorati tushunchasi va uning shakllari bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Tadqiqotchining fikricha, bank nazorati – moliyaviy nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, vakolatli organ tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda bank tizimi barqarorligi va tartibligini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatiga ta'sir etadigan yuridik va iqtisodiy usul (vositalar) majmui hisoblanadi.

Bank nazoratining quyidagi: banklar faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash; banklar faoliyatini tekshirish; banklar faoliyatini masofaviy tekshirish; bank faoliyatini monitoring qilish; bank faoliyatining ayrim operatsiyalariga ruxsat berish; bank faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun xabardor qilish tartibini belgilash; banklarning alohida toifadagi shaxslarini tekshirish; bank faoliyatiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish; iqtisodiy normativlarni (kapital, rezerv, risk, likvidlik) belgilash; banklar amal qiladigan minimal va maksimal talablarni belgilash; bank va nobank tashkilotlar tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlar uchun chora va sanksiyalar qo'llash kabi shakllari to'g'risida fikrlar ilgari suriladi.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (AQSh, Germaniya, Kanada, Singapur, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida makroprudensial siyosat – moliya tizimining tizimli

risklarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushunilishi, moliya tizimining tizimli risklari deganda moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning buzilishi, butun moliya tizimining yoki uning bir qismining moliyaviy holatining yomonlashishiga olib keladigan yoki uning barqaror ishlashiga putur yetkazadigan xatarlar tushunilishi, moliyaviy tizimning tizimli risklariga tizimli ahamiyatga ega moliyaviy tashkilotlarning risklari ham kirishi qayd etilgan, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni 67-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Bank huquqbuzarligi bank qonunchiligida belgilangan qoidalarni buzish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanishi, Markaziy bank tomonidan qo'llanadigan choralar (sanksiya) bank va nobank tashkilotlarning bank qonunchiligida belgilangan qoidalarni buzganligi sababli qo'llanadigan majburlov (ta'sir) vositalari hisoblanishi to'g'risida xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar bank qonunchiligi tahlil qilinib, Markaziy bank tomonidan qo'llanadigan choralar va sanksiyalarni qo'llashdan maqsad O'zbekiston Respublikasida bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchilar, boshqa iste'molchilar va boshqa kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun tezkor javob berish hamda muammolarni tuzatish va bartaraf etish hisoblanishi to'g'risida xulosaga kelingan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni 67-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Kanada, Janubiy Koreya, AQSh, Shveysariya va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida Markaziy bank tomonidan banklarga qo'llanadigan chora va sanksiyalar tizimlashtirilgan, xususan, Markaziy bank tomonidan banklarga quyidagi chora va sanksiyalar qo'llanishi: 1) ogohlantirish xati yuborish; 2) o'z kapitalining besh foizigacha miqdorda jarima undirish; 3) talab qilish; 4) iqtisodiy standartlar va talablarni oshirish; 5) cheklash yoki taqiqlash; 6) mansabdor shaxslarni olib tashlash yoki ishdan bo'shatish, boshqaruv organlarini o'zgartirish; 7) vaqtinchalik boshqaruvni joriy etish; 8) qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha litsenziyani bekor qilish; 9) ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni bekor qilish; 10) xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni to'xtatib turishga yoki tugatish kabi choralar bo'yicha qayd etilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni 67-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Germaniya, AQSh, Singapur, Qozog'iston, Shveysariya va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida bank mijozlarining huquq va manfaatlari 3 usulda himoya qilinishi to'g'risida xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi fikricha, bank mijozlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi ma'muriy usulda markaziy bank tomonidan mijozlar bilan ishlashda banklarga belgilangan minimum va maksimum talablar majburiy qonun darajasida belgilanishi; shartnomaviy usulda bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada taraflar ayrim qoidalarni o'zaro yozma kelishishi, qo'shimcha usulda esa bank mijozlarining bankdagi omonatlarini kutilmagan xavfdan himoya qilish uchun maxsus omonatchilar fondi

tashkil etilishi, shuningdek, ayrim javobgarliklar bo'yicha sug'urtalash xizmatidan foydalanishdan iborat ekanligi to'g'risida xulosaga kelingan.

Dissertatsiyada xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, bank ombudsmani o'z faoliyatida mustaqil bo'lgan, bank, bank operatsiyalarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi tashkilot va qarz oluvchining huquqlari va qonun bilan himoyalangan manfaatlarini himoya qilish to'g'risida kelishuvga erishish uchun uning iltimosiga binoan bank shartnomasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni hal qiluvchi shaxs ekanligi to'g'risida xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi tomonidan milliy va xorijiy davlatlar (Germaniya, AQSh, Singapur, Qozog'iston, Shveysariya va boshqa davlatlar) bank qonunchiligi tahlil qilinishi asosida bank ombudsmani institutini milliy qonunchilikka tatbiq etish lozimligi, mazkur institut nizolarni hal qilishning maqbul usuli sifatida oldinga chiqishi, xususan, bank qonunchiligida bank ombudsmani tushunchasi, maqomi, saylanish tartibi, faoliyatining prinsiplari, vakolati, bank ombudsmaniga qo'yiladigan talablar va u tomonidan qarorlar qabul qilish tartibining huquqiy asoslarini belgilash lozimligi qayd etilgan, shuningdek, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun 9-bobiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

## XULOSA

"O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusida o'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Bank tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *"Bank – faoliyati daromad olishga qaratilgan, vakolatli organ tomonidan berilgan litsenziya doirasida bank mijozlariga bank xizmatlarini ko'rsatish, xususan, jismoniy va yuridik shaxslarga bank hisobraqamlarini ochish va yuritish, omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish, to'lovlar va hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi"*.

2. Bank faoliyati tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *"Bank faoliyati – banklar tomonidan qonunchilikka muvofiq o'z ustavida va vakolatli organ tomonidan berilgan litsenziyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalari va tashkiliy-harakatlar majmui hisoblanadi"*.

3. Tijorat banki tushunchasi bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *"Tijorat banki" tushunchasi va "bank tushunchasi" o'zaro bog'liq bo'lib, tijorat banki tushunchasining mohiyati bank faoliyati daromad olishga qaratilganligi va uning faoliyati tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida moliya bozorida ishtirok etishini anglatadi.*

4. Banklar faoliyatining yuridik tabiati bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *banklar foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tijoratchi yuridik shaxs hisoblanadi, bunda markaziy bankning faoliyati istisno hisoblanadi, chunki markaziy bankning asosiy maqsadi nazorat qilish va shu orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi; banklar mulk shakli va ulushiga ko'ra davlatga qarashli, xususiy, chet el kapitali ishtirokidagi bank va chet el banklari sifatida faoliyati yuritishi mumkin; banklar faoliyati alohida toifadagi faoliyat turi*

*bo'lganligi sababli vakolatli organdan berilgan litsenziya asosida faoliyat yuritadi; banklar asosiy faoliyat sifatida kredit, moliya va bank operatsiyalarini amalga oshiradi; banklar bevosita ishlab chiqarish savdo va banklar faoliyatiga xos bo'lmagan xizmatlar bilan shug'ullanmaydi; banklar yuridik shaxs sifatida barcha mulkiy va nomulkiy huquqdan foydalanadi, majburiyatlarga ega bo'ladi hamda javobgar bo'ladi.*

5. Banklar turlari bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *banklar turlari ularning mulk shakliga ko'ra (davlat, xususiy), xizmat ko'rsatish hududiga ko'ra (davlat, davlatlararo, xalqaro), ta'sischi toifasiga ko'ra (milliy, chet el ishtirokida, chet el banki), faoliyati turi va sohasiga ko'ra (ipoteka, investitsiya, qishloq xo'jaligi, sanoat-qurilish) va maqsadi ko'ra (tijorat va notijorat) tasniflanadi.*

6. Bank prinsiplari bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *"Bank prinsiplari – bank munosabatlarini tartibga soluvchi bank qonunchiligining asosiy va bosh qoidalari"*.

7. Markaziy bankning asosiy maqsadi va vazifalari bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *"Markaziy bankning asosiy maqsadi – moliya-kredit mexanizmlari orqali pul va narxlarning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi va mazkur maqsaddan kelib chiqib, moliyaviy vazifalarni bajaradi (nazorat qilish, tekshirish, monitoring qilish, normativ-huquqiy hujjat chiqarish orqali tartibga solish, litsenziyalash, maslahat, kafolat, kafil, fiskal agent, rezerv, depozitariy va boshqalar)"*.

8. Banklarning asosiy vazifasi bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *"Banklarning asosiy vazifasi – moliya-kredit tizimida bo'sh mablag'lardan unumli foydalanish orqali kapital bozorni moliyalashtirish va aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi"*.

9. Bank qonunchiligi bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *"Bank qonunchiligi – vakolatli organ tomonidan qabul qilingan bank sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi hisoblanadi"*.

10. Bank qonunchiligining rivojlanish bosqichlari bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: *O'zbekistonda bank qonunchiligi rivojlanishining **birinchi bosqichi** (1991-1994)da mustaqil O'zbekistonning bank tizimining fundamental asoslari yaratilgan. O'zbekistonda bank qonunchiligi rivojlanishining **ikkinchi bosqichi** (1994-1996)da milliy valyuta muomalaga kiritilgan va ikki pog'onali bank tizimining huquqiy asoslari yaratilgan. O'zbekistonda bank qonunchiligi rivojlanishining **uchinchi bosqichi** (1997-2000)da banklarni xususiy lashtirish, aksiyadorlik tijorat banklarida boshqaruvning sifatini oshirish va banklar faoliyatida nazorat kuchaytirilgan. O'zbekistonda bank qonunchiligi rivojlanishining **to'rtinchi bosqichi** (2000-2010)da bank tizimi yanada erkinlashtirilib, bozor munosabatlariga oid qoidalar joriy etilgan. O'zbekistonda bank qonunchiligi rivojlanishining **beshinchi bosqichi** (2010-2016)da O'zbekistonda zamonaviy bank tizimi takomillashtirildi va xalqaro bank standartlariga moslashtirildi. **Oltinchi bosqich** (2016-2024)da O'zbekistonda banklarni xususiy lashtirish, elektron bank xizmatlari joriy etish, valyuta siyosati erkinlashtirish va bozor iqtisodiyotga xos bo'lgan prinsiplarni joriy etish hamda banklarning mustaqilligiga urg'u berildi.*

11. O‘zbekiston Respublikasida banklarni ochish bo‘yicha quyidagi xulosaga kelindi: *O‘zbekiston Respublikasida banklarni ochish uchun har qanday shaxs, xususan, rezident va norezident jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari mavjud. Banklarning asosiy vazifa va funksiyasidan kelib chiqib, moliyaviy mas’uliyatni oshirish hamda mijozlarning huquq va manfaatlarini ko‘zlab, qonunchilikda banklarni ochish uchun bir qator talablar belgilangan. Xususan, mazkur talablarni umumiy asoslarda, guruhlariga ajratishimiz mumkin, birinchi guruh – muassislarga qo‘yilgan talablar, ikkinchi guruh – bank xodimlariga qo‘yilgan talablar, uchinchi guruh – moliyaviy mablag‘larga qo‘yilgan talablar, to‘rtinchi guruh – bank binosi, uskuna va dasturlarga qo‘yilgan talablar, beshinchi guruh – bankning tashkiliy tuzilmasi va bankni tashkil etishga doir hujjatlarga qo‘yilgan talablar.*

12. Bank operatsiyasi tushunchasi bo‘yicha quyidagi xulosaga kelindi: *“Bank operatsiyalari – markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiriladigan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘oz, to‘lov, valyuta va boshqa xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy operatsiyalar hisoblanadi”.*

